



FUQAROLIK TUYG'USI TARBIYASI VA SHAXS MA'NAVIY KAMOLATI

Ziyayev A.

*Qo'qon davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida dotsenti*

Tayanch so'zlar: fuqarolik vazifalar, vatanparvarlik, baynalmilallik, huquqiy ta'lim-tarbiya.

Ключевые слова: гражданский долг, патриотизм, интернационализм, юридическое образование.

Key words: civic duties, patriotism, internationalism, legal education.

Резюме:

Mazkur maqolada o'quvchi yoshlar tarbiyasida fuqarolik tuyg'usi tarbiyasining mohiyati va ahamiyati yoritilgan. Fuqarolik tuyg'usi tarbiyasi asoslari boshlang'ich sinflarda amalga oshirilib borilishi tarbiyaviy vazifalarni ro'yobga chiqarishda muhim bosqich ekanligi hamda bu borada amaliy tavsiyalar haqida ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.

Резюме:

В данной статье раскрыта сущность и значение воспитания гражданственности в воспитании студенческой молодежи. Информация о реализации основ гражданского воспитания в начальных классах является важным шагом в реализации образовательных задач и практических рекомендаций в этом отношении.

Summary:

This article reveals the essence and significance of civic education in the education of student youth. Information on the implementation of the basics of civic education in elementary grades is an important step in the implementation of educational objectives and practical recommendations in this regard.

Yoshlar yurtimizning ertangi kuni bo'lib, ularda fuqarolik tuyg'ularini tarbiyalash dolzarb ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning har bir chiqishlari, ma'ruzalari va uchrashuvlarida yoshlar tarbiyasi masalasi qayta va qayta kun tartibiga qo'yilayotganligi buning yorqin dalilidir.

Zero, fuqarolik tuyg'usi tarbiyasi o'quvchi yoshlar ma'naviy kamoloti shakllanishida muhim ahamiyatga egadir.

Fuqaro-fuqoroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat a'zosi bo'lgan shaxs. Fuqarolik ~insonning Vatan, xalq oldidagi huquq va



vazifalari, ijtimoiy va axloq me'yorlariga bo'ysunishi, ijtimoiy faolligini hamda ma'naviy etukligidir. Fuqarolik - deganda, insonni huquqiy yoki siyosiy - huquqiy tomondan himoyalaniishi va qonuniy manfaatlarining ushbu davlat ichida va uning tashqarisida himoyalaniishi tushuniladi. Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Fuqarolik tuyg'usi milliy ongi, psixik olamning eng yuksak ko'rinishda bo'lib, har bir kishida ijtimoiy hayotning barcha jabxalarida huqukiy qoidalar, tartiblar burchlarga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek hayotda faol qatnashish, ma'naviy axloqiy jihatdan etukligini ifodalaydi.[10]

Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy etukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy etukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

Fuqarolik jismoniy shaxsning ma'lum bir davlat bilan huquqiy bog'lanishidir. Fuqarolikka ega shaxs fuqaro, deyiladi. Bu bog'lanish fuqaroning tegishli davlatga nisbatan bo'lgan huquq va burchlari hamda uning o'sha davlat tomonidan himoya qilinishida namoyon bo'ladi.[3]

Fuqarolik – shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiy huqukiy aloqasi bo'lib, bu aloqa shaxs va davlatning o'zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. Shaxs fuqaro sifatida davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e'tirof etadi, ularning amalga oshirishini ta'minlash choralarini ko'radi. Fuqarolarning manfaatlarini davlat, fuqarolar boshqa mamlakatlar hududida turgan vaqtda ham himoya qiladi, ularga homiylik ko'rsatadi. O'z navbatida, fuqarolar davlat qonunlari va qoidalariga so'zsiz rioya qiladilar.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish.

O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.



O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayorlik hissini shakllantirish.

O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga etkazish.

Yosh avlodga turli fanlar asoslarini chuqur o'zlashtirish ularning tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga, shuningdek, fuqaro sifatida o'z majburiyatlarini to'laqonli anglashlari uchun imkoniyat yaratishni tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir.

Fidoyilik, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, qa'iyat, matonat, uyushqoqlik kabi xislatlar o'quvchilarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida tarbiyalanadi. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shart - sharoitlarning mavjudligi taqozo etiladi:

O'quv yurtida tashkil etilayotgan ta'lim - tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak;

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonining muvaffaqiyati o'qituvchi va o'quvchilar jamosining saviyasiga bog'liq;

tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo'lishiga erishish;

oila, maktab va mahalla o'rtasida o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi;

o'quvchilarning axloqiy va huquqiy me'yorlar, umumiy tartibga qat'iy rioya etishga o'rganish, zimmasidagi birinchi to'laqonli ado etishlariga qaratish.

Fuqarolik tuyg'usini tarbiyalash o'z navbatida quydagi ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

– o'sib kelayotgan yosh avlodni huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli munosabatda bo'lish;

– ularga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib boorish, fuqarolik faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilish;

– o'quvchilarda xalq o'tmishi, qadriyatlarga muhabbat va ulardan g'ururlanish, iftixor hislarini paydo qilish vatan, yurt ozodligini e'zozlash, ardoqlash va himoyalashni tarbiyalash, davlatimiz ramzlariga hurmat hissini shakllantirish;

– ularda huquqiy madaniyatni tarbiyalash kabilardan iborat.[7]

Fuqarolik tuyg'usi tarbiyasi asoslari boshlang'ich sinflarda amalga oshirilib borilishi yuqoridagi tarbiyaviy vazifalarni ro'yobga chiqarishning muhim bosqichi hisoblanadi. Maqola taqdiqot mavzusining asosiy maqsadi



ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida fuqarolik tuyg'usi tarbiyasini amalga oshirishda suhbat metodining samarali jihatlarini yoritishdan iborat. Tarbiya metodlaridan biri suhbat metodi bo'lib, o'quvchilarda qo'yiladigan masalani tez va to'g'ri anglab olishda quydagi imkoniyatlarga ega:

Birinchidan, suhbatda o'quvchi yoshini hisobga olinishi tufayli o'quvchi tajribalariga suyanilib mavzu maqbullashtiriladi;

Ikkinchi muhim xususiyati o'quvchining mustaqil, erkin fikrlash imkoniyatlarini orttiradi;

Uchinchidan, o'qituvchiga o'quvchilarni hayotiy tajribalariga suyanishi mavzuni qiziqarli va faol tarzda o'tkazilishiga olib keladi, birgalikda to'g'ri xulosalar qilish, ularning fikrlarini to'ldirish mumkin bo'ladi. Suhbat metodini qo'llash orqali o'quvchilarda fuqarolik tuyg'ularini shakllantirish samaradorligi ortadi. O'quvchilarning ijtimoiy ongi shakllanishida suhbat orqali ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faoliyat ko'rsatishga doir tushunchalar to'g'ri anglanishiga erilishiladi.

Boshlang'ich sinflarda fuqarolik tuyg'usi o'quvchilarni yoshi, bilim saviyasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Yani unda asosiy masalalar o'quvchining o'zligini anglashga, erkinlik, mustakillik tushunchalarni anglatish, konstitutsiyaviy huquqlari mohiyati, ular ijtimoiy, shaxsiy hayotida tutgan o'rni va ahamiyati haqidagi bilim va saviyasi maktab hayotidagi barcha tadbirlarda, ijtimoiy- foydali mehnatlarda ishtirok etishlari orqali amalga oshiriladi. Eng muximi ularda o'zi tug'ilib o'sgan xudud, Vatan bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish jarayoniga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar fuqarolik tuyg'usi ularni maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'yishlari orqali tarkib topa boshlaydi. Ular o'zlarini shu zaminining kichik bir egasi ekanligini anglay boshlaydilar. Dastlabki bosqichda Davlat ramzlari bilan tanishuvlari hamda prezidentning sovg'alari bilan taqdirlanishlari mohiyati haqida uyushtiriladigan suhbatlar ulardagi fuqarolik tuyg'usining yanada barq urushida muhim motiv rolini o'ynaydi.

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.



Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida fuqarolik tuyg'usi asoslarini tarbiyalashda katta pedagogik imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlardan o'rinli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Adabiyotlar:

1. Ziyayev, A. I. "National and cultural peculiarities of english, russian and uzbek phraseological intensifiers." *International scientific journal* 40.34 (2016): 65-71.
2. Ziyayev, A. I., and Z. J. Aliyeva. "Integration internet technologies in the educational process of teaching foreign languages." *Вестник магистратуры* 5-4 (128) (2022): 140-142.
3. Ziyayev, A. N. "Primary education and aesthetic sense training." *international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 62-64.
4. Ziyayev, A. N. "Primary education and aesthetic sense training." *international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 62-64.
5. Ziyayev, A. N. "Pedagogical aspects of the use of educational values in the spiritual development of students." *international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 86-88.
6. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "Правила использования интерактивных методов обучения." *Conferencea* (2023): 143-148.
7. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "Педагогические аспекты использования мыслей мыслителей в эстетическом воспитании учащихся." *E Conference Zone*. 2023.
8. Ziyayev, A. N. "The main areas of activity of the class leader in the education of the necessary skills for an independent life in students." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 953-956.
9. Ziyayev, A. N. "Some issues of the formation of skills of a healthy lifestyle in students in the process of labor education." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 851-853.
10. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. "Роль национальных ценностей в воспитании гражданина." *Ученый XXI века* (2017): 78
11. J. Hasanboyev, X. A. To'raqulov, I. Sh. Alqarov, N. O'. *Usmonov Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi)*. 2011-yil.
12. B. X. Xodjayev *Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. 2017-yil.
13. X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva. *Pedagogika nazariyasi* 2008-yil.